




TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2022- yil yanvar)

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga sog'lom raqobat muhitida sifatli va raqobatbardosh hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, o'z vaqtida xaridorlarga yetkazilishida bir qator qulayliklar tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Shuningdek, korxonalar va tashkilotlarga davlatimiz tomonidan bir qator imtiyoz va qulayliklar yaratib berilmoqda, xususan, davlat soliqlarining ma'lum bir muddatga uzaytirilishi va belgilangan vaqtda qisman bo'lib to'lanishi, eksport salohiyatini oshirish bo'yicha ham qulaylik va yengilliklar yaratilishi savdo aloqalarining o'sishiga xizmat qiladi.


2022- yil yanvar oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 412,6 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 67,3 mln. AQSh dollariga yoki 19,5 %ga ko'paydi.






TSAda eksport hajmi 135,8 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati – 108,7 %) va import hajmi 276,8 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati – 125,7 %) yetdi. Hisobot davrida 141,0 mln. AQSh dollari qiymatida salbiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar, mln. AQSh dollari)



TASHQI SAVDO AYLANMASINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2021- yil yanvarga nisbatan, %da)

2022- yil yanvar





TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ULUSHI YUQORI BO'LGAN DAVLATLAR (2022- yil yanvar, mln. AQSh dollari)


Davlatlar nomlari	TSA	Eksport	Import	Ulush, %da
Xitoy	93,4	23,9	69,5	22,6
Rossiya Federatsiyasi	79,6	33,2	46,4	19,3
Qozog'iston	67,5	6,7	60,8	16,4
Turkiya	50,7	40,5	10,2	12,3
Braziliya	24,7	0,0	24,7	6,0
Koreya Respublikasi	21,3	0,3	21,0	5,2
Afg'oniston	7,1	7,1	0,0	1,7
Ukraina	7,0	4,2	2,8	1,7
Polsha	5,7	1,5	4,2	1,4
Tojikiston	4,8	4,3	0,5	1,2
Germaniya	4,7	0,5	4,2	1,1
Eron (Islom Respublikasi)	3,5	0,0	3,5	0,9
Argentina	3,2	0,0	3,2	0,8
Italiya	3,1	1,3	1,8	0,8
Belarus	3,1	2,3	0,8	0,7
Qirg'iz Respublikasi	3,0	2,1	0,9	0,7
Niderlandiya	2,4	2,0	0,4	0,6
Litva	2,2	0,0	2,2	0,5
Daniya	2,2	0,0	2,2	0,5
Hindiston	2,0	0,1	1,9	0,5



Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2022- yilning yanvar oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 40,8 %ni hamda o'sish sur'ati 2021- yilning shu davriga nisbatan 117,4 %ni tashkil etdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning yanvar oylarida 59,2 %ni (2021- yilning ushbu davrida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 58,5 %ni tashkil qilgan), o'tgan yilning mos davriga nisbatan 121,0 %ni tashkil etdi.

TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING ULUSHLARI (2022- yil yanvar, % hisobida)






TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (2022- yil yanvar, mln. AQSh dollari)

MDH davlatlaridan Qozog‘iston, Tojikiston va Qirg‘iz Respublikasi bilan faol tashqi savdo balansi hamda boshqa davlatlardan (qo‘shni davlatlardan tashqari) esa Turkiya, Braziliya va Korea Respublikasi davlatlari bilan faol tashqi savdo balansi kuzatilganini ko‘rish mumkin.

TSAda eng yuqori ulush Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston va Turkiya davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.






TOSHKENT VILOYATINING EKSPORTI (2022- yil yanvar)

Hozirga kunda davlat tomonidan eksportyorlarni qo‘llab-quvvatlash va eksportbop mahsulotlarni yaratishda imtiyozlar hamda iqtisodiy ko‘mak berilmoqda.

2022-yil yanvar oyi yakuni bilan 135,8 mln. AQSh dollari qiymatdagi (2021-yilning shu davriga nisbatan 108,7 %) tovar va xizmatlar eksport qilindi. Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,3 %ni tashkil etib, bular asosan sanoat tovarlari (68,0 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (11,5 %), turli xil tayyor buyumlar (10,2 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari) (4,8 %), kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (2,8 %), shuningdek, mashina va transport asbob-uskunalari (2,0 %) guruhlariga to‘g‘ri kelmoqda.



■ Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar

■ Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)

■ Hayvon va o‘simliklar moylari, yog‘lar va mumlar

■ Sanoat tovarlari

■ Turli xil tayyor buyumlar

■ Ichimliklar va tamaki

■ Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabilar

■ Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar

■ Mashinalar va transport asbob-uskunalari

■ Xizmatlar



MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI (2022- yil yanvar)

Tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	135,8	53,8	82,0	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	15,7	5,5	10,2	11,6	10,2	12,4
Ichimliklar va tamaki	0,3	0,2	0,1	0,2	0,4	0,0
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	6,5	4,5	2,0	4,8	8,4	2,4
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	3,8	2,2	1,6	2,8	4,0	2,0
Sanoat tovarlari	92,4	24,8	67,6	68,0	46,0	82,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	2,7	2,6	0,1	2,0	5,0	0,1
Turli xil tayyor buyumlar	13,8	13,7	0,1	10,2	25,5	0,2
Xizmatlar	0,6	0,3	0,3	0,4	0,5	0,4




MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING O‘SISH SUR‘ATLARI (2022- yil yanvar)



2022- yilning yanvar oyida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, 2021- yilning mos davriga nisbatan, mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar, ichimliklar va tamaki, nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari), kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar, sanoat tovarlari hamda turli xil tayyor buyumlarda o'sish kuzatildi.

Tarkibi	2021- yilning shu davriga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	108,7	170,2	87,8
shu jumladan:			
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	105,1	147,1	91,1
Ichimliklar va tamaki	4,5 m.	5,3 m.	0,0
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	2,0 m.	27,7 m.	65,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar	74,5 m.	74,5 m.	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	18,0	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	99,4	99,2	99,7
Sanoat tovarlari	105,4	2,1 m.	89,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	175,4	192,8	31,3
Turli xil tayyor buyumlar	110,2	111,6	47,1
Xizmatlar	57,6	253,4	34,3



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Tojikiston, Qozog'iston, Afg'oniston va Ukraina hamkor davlatlaridan jami eksport hajmi 119,8 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy eksport hajmining 88,2 %ini tashkil qiladi.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismidan biri bo'lgan 159,7 mln. dollar qiymatga ega 247,6 ming tonnadan ziyod qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlari eksport qilingan. Bu 2021- yilning shu davriga nisbatan qiymatda – 26,0 %ga kamaygan, naturada – 28,8 %ga kamaygan, Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 99,4 mln. AQSh dollariga teng 163,9 ming tonnadan ortiq sabzavot (qiymatda 5,0 %ga o'sgan), shuningdek, 34,8 mln. AQSh dollari qiymatidagi 45,4 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi (qiymatda o'zgarish sur'ati 52,8 %ga teng).

2022- yil yanvar, mln. AQSh dollari

				
Meva va rezavorlar	Uzum	Qovun va tarvuzlar	Yeryong'oqlar	Sabzavotlar
45,4 ming tonna	27,0 ming tonna	8,5 ming tonna	2,7 ming tonna	163,9 ming tonna
34,8 mln. AQSH dollari	20,0 mln. AQSH dollari	2,3 mln. AQSH dollari	3,1 mln. AQSH dollari	99,4 mln. AQSH dollari

Mamlakatimizda eksport qilinayotgan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlar sifati va hajmi yanada ortib bormoqda. Jumladan, 2022- yilning yanvar oyida meva-sabzavotlarning eksport hajmi 134,3 mln. AQSH dollariga teng bo'lib, jami eksport hajmining 6,7 %ini tashkil qiladi.

TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI (2022- yil yanvar)



Mamlakatimizda faoliyat yuritmayotgan korxonalar va tashkilotlar holati o'rganilib, xususan ishlab chiqarish korxonalariga import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishda davlatimiz tomonidan moddiy va moliyaviy yordamlar berilmoqda.

Joriy yilning yanvar oyi mobaynida import hajmi 276,8 mln. AQSh dollarini (2021-yilning shu davriga nisbatan o'zgarish sur'ati 125,7 %) tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalar (26,1 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (21,0 %), sanoat tovarlari (17,3 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (15,3 %), hamda kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (10,1 %) hisobiga to'g'ri keldi.






Tarkibi	mln. AQSh dollari			umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami import	276,8	114,5	162,3	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	58,0	21,9	36,1	20,9	19,1	22,3
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,00
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	42,2	40,2	2,0	15,3	35,2	1,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar	4,7	4,6	0,1	1,7	4,0	0,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	4,3	4,2	0,1	1,5	3,6	0,1
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	28,1	6,6	21,5	10,1	5,8	13,2
Sanoat tovarlari	47,8	29,2	18,6	17,3	25,5	11,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	72,2	5,8	66,4	26,1	5,1	40,9
Turli xil tayyor buyumlar	13,7	0,9	12,8	5,0	0,8	7,9
Boshqa tovarlar	1,1	1,1	0,0	0,4	0,9	0,0
Xizmatlar	4,7	0,0	4,7	1,7	0,0	2,9

Importning eng katta ulushi, nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (35,2 %), sanoat tovarlari (25,5 %) MDH mamlakatlariga to'g'ri kelsa, boshqa xorijiy mamlakatlardan esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (40,9 %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (22,3 %) hissasiga to'g'ri keladi.



Tarkibi	2021- yilning shu davriga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	125,7	102,5	149,5
shujumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	128,4	99,4	155,9
Ichimliklar va tamaki	16,7	16,4	0,0
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	132,9	138,7	72,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar	27,8	27,2	154,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	56,0	55,2	147,3
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	218,8	217,6	219,1
Sanoat tovarlari	129,9	126,0	136,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	129,1	61,9	142,7
Turli xil tayyor buyumlar	129,3	196,6	126,3
Boshqa tovarlar	0,0	0,0	0,0
Xizmatlar	190,3	70,5	191,6





Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Xitoy, Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Braziliya, Koreya Respublikasi, Turkiya va Germaniya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 236,7 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy import hajmining 85,5 %ini tashkil qiladi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi**
Tel.: (71) 202-86-59